

# AGROBIZNES, FAN VA TEXNOLOGIYALAR

ILMIY-AMALIY  
ELEKTRON  
JURNALI

Агробизнес, наука и технологии

*Agribusiness, science and technology*

№ 083688



ISSN:  
3060-5245



Toshkent-2026

Platform & workflow by  
OJS / PKP

**BOSH MUHARRIR**

**Oblomuradov Narzullo Naimovich** – i.f.d. (DSc), professor.

**Bosh muharrir o'rinbosarlari:**

**Islamov Soxib Yaxshibekovich** – q.x.f.d. (DSc), professor.

**Sultonov Kamoliddin Sadriddinovich** – q.x.f.d. (DSc), professor.

**Farmonov To'liqin Xayitmurodovich** – i.f.d. (DSc), professor.

**Muharrir:**

**Beglayev Uchqun Xurramovich** – i.f.f.d. (PhD), dotsent.

**Tahrir hay'atining xalqaro a'zolari:**

**Kusainov Xalel Xaymullayevich** – i.f.d. professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)

**Vilija Aleknevičienė** – i.f.d. professor (Universitet Vitovta Velikogo)

**Gilbert Ludwig** – professor, (Jamk University of Applied Sciences)

**Bobojonov Ixtiyor Baxtiyorovich** – i.f.d. professor (Germaniyaning Leybnits nomidagi Markaziy Osiyoda qishloq xo'jaligini rivojlantirish instituti (IAMO))

**Daiva Makutenene** – professor, (Vilniaus Magnus universiteti, Litva)

**Xaitboyeva Nargiza Alikulovna** – i.f.d. dotsent (Tojikiston davlat huquq, biznes va siyosat universiteti)

**Tahrir hay'ati:****08.00.00-Iqtisodiyot fanlari:**

**Gulyamov Saidasror Saidaxmedovich** – i.f.d. (DSc), professor;

**Saidov Muxammad-Ali Xakimovich** – i.f.d. (DSc), professor;

**Rustamova Iroda Baxramjanovna** – i.f.d. (DSc), professor;

**Ochilov Ilhom Sayitqulovich** – i.f.d. (DSc), professor;

**Askarov Nazimjon Niyozovich** – i.f.d. (DSc), professor;

**Abdullayev Altinbek Yangibayevich** – i.f.d. (DSc), professor;

**Boltayev Abror Sayitmuradovich** – i.f.d. (DSc), dotsent;

**Abduvasikov Abduaziz Abdulazizovich** – i.f.n. professor;

**Mamadiyarov Dilshad Uralovich** – i.f.n. dotsent;

**Achilov Mashrab Ulug'bekovich** – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

**Galimova Feryuza Rafikovna** – i.f.n. dotsent;

**Odilova Dilnozaxon Barnayevna** – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

**Yangiboyev Dilshod G'ulomovich** – i.f.f.d. (PhD);

**Saidova Dildora Nurmatovna** – i.f.n. dotsent;

**Dexkanova Nilufar Sagdullayevna** – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

**Roziqov Jahongir Mustaqim o'g'li** – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

**Boltayev Nurali Shiramatovich** – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

**Ibragimova Madina Ismoilovna** – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

**Javlijev Nuriddin Bektemir o'g'li** – i.f.f.d. (PhD).

**06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari:**

**Shokirov Alisher Djuraboyevich** – q.x.f.d. (DSc), professor;

**Mardanov Husniddin Xolbozorovich** – q.x.f.d. (DSc);

**Abdiyev Fozil Rashidovich** – q.x.f.d. (DSc);

**Sattorov Maqsud Axtamovich** – q.x.f.d. (DSc);

**Yuldashov Nurbek Ergashovich** – v.f.d. (DSc);

**Xalmirzayev Dilmurad Kamilovich** – q.x.f.d. (DSc), dotsent;

**Namazov Ixtiyor Choriyevich** – q.x.f.d. (DSc), professor;

**Xudayqulov Jonibek Bozarovich** – q.x.f.d. (DSc), professor;

**Eshonqulov Jamoliddin Saporboy o'g'li** – q.x.f.d. (DSc), professor;

**Abdullayev Anvar Kodirullayevich** – b.f.n., katta ilmiy xodim;

**Atabayev Ma'ruf Maxmudovich** – q.x.f.n. professor;

**Safarov Asqar Asadullayevich** – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

**Mustafakulov Davron Mamatqulovich** – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

**Kasimov Botir Sadriddinovich** – q.x.f.f.d. (PhD);

**Akramov Umidilla Ikramdjanovich** – q.x.f.n. dotsent;

**Elboboyev Abdug'ani Shuxrat o'g'li** – q.x.f.f.d. (PhD);

**Muxammadov Yo'ldoshbek Akmal o'g'li** – q.x.f.f.d. (PhD);

**Maxmudova Shaxnoza Abdufattaxovna** – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

**Idrisov Xusanjon Abdujabborovich** – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent.

**MUASSIS**

Toshkent davlat agrar  
universiteti

**ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR**

Manzil: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.

Jurnalning telegram manzili:

[t.me/agrobiznes\\_elektronjurnal](https://t.me/agrobiznes_elektronjurnal)

E-mail: [licht-1989@mail.ru](mailto:licht-1989@mail.ru)

Jurnalning rasmiy sayti:

<https://www.agrobiznesjournal.uz>

Tel: +(998) 93 439 30 00

**JURNALNING ILMIYLIGI:**

Ma'lumot uchun, OAK  
Rayosatining 30.11.2024-yildagi  
№364/5-sonli qarori bilan  
08.00.00-Iqtisodiyot fanlari  
bo'yicha, 08.05.2025-yildagi  
№370/5-sonli qarori bilan  
06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari  
bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy  
ilmiy natijalarini chop etish  
tavsiya etilgan milliy ilmiy  
nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.

**Elektron nashr**, 345-sahifa.  
2026-yil, sentabr.





## MUNDARIJA

### IQTISODIYOT FANLARI

#### **КУРПАЯНИДИ КОНСТАНТИН ИВАНОВИЧ**

Стратегии цифровой трансформации в Европейском союзе и потенциал институционального трансфера Французского опыта в Узбекистан.....11

#### **ERGASHEV RUSTAM RAJABOVICH**

Ilmiy ishlanmalar asosida Spin-off korxonalarini tashkil etish va rivojlantirishning bosqichli boshqaruv modeli.....25

#### **ABDURAXMANOVA MUQADDAS TOXTASINOVNA**

Temir yo'l transporti korxonalarida ekologik-iqtisodiy samaradorlikni oshirishning ilg'or mexanizmlari.....34

#### **ABDULLAYEV ILYOS AXMADOVICH, JABBOROV JAMOLIDDIN MUXAMMADJON O'G'LI**

Surxondaryo viloyatida demografik jarayonlarning statistik tahlili.....44

#### **XASANOV SANJARBEK ABDUMANNOBOVICH**

Sanoat korxonalarida raqamli transformatsiya darajasini baholash uslubiyoti ("Farg'onaazot" AJ misolida).....50

#### **ABDURAZAKOVA NARGIZA RIXSIBAYEVNA**

Aksiyadorlik jamiyatlarida xususiy kapital rentabelligiga ta'sir etuvchi omillar: O'zbekistonning uchta aksiyadorlik jamiyati misolida panel tahlil.....57

#### **SULTANOVA ZUXRA JAKSILIKOVNA**

Qaraqalpaqstan Respublikasida region ekonomikasini rivojlantirishda IT park xizmatini amalga oshirish masalalari ham paydalanilgan mumkinliklari.....69

#### **ERGASHEV G'YOS BAXROM O'G'LI**

Mamlakat qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportining yalpi ichki mahsulotdagi ulushini oshirish zarurati.....76

#### **URMANOVA UMIDA XAKIMDJANOVNA**

Sanoat tarmoqlariga investitsiyalarni jalb etish holati va rivojlanish tendensiyalari.....87

#### **SHAMSIDDINOVA DILNOZA SHAVKAT QIZI**

O'zbekiston chirm poyabzal korxonalarida milliy brend qiymatini oshirishning marketing mexanizmlarini takomillashtirish.....97

#### **MUSAYEV OZODJON SHAVKAT O'G'LI**

Mehnat resurslarini boshqarishning zamonaviy usullari va ularning iqtisodiy samaradorligi.....106

#### **XALIKCHAYEVA SADOKAT**

Qum-shag'al mahsulotlarini realizatsiya qilishda soliq bazasini aniqlash metodologiyasi "Minimal narx" mexanizmining tatbiq chegaralarini takomillashtirish masalalari.....113

#### **XUSANOV SHUXRAT BURXANOVICH**

Moliyaviy hisobotlarni qalbakilashtirish xavfi ko'rsatkichlari tizimini ishlab chiqish.....122





|                                                                                                                                                              |     |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| <b>QUDRATOV ALISHER ALIJANOVICH, QODIRQULOVA SEVINCH TOIR QIZI</b>                                                                                           |     |
| Qishloq xo'jaligida dukkakli mahsulotlarni yetishtirishda davlatning iqtisodiy tutgan o'rni.....                                                             | 133 |
| <b>IKROMOVA IRODA</b>                                                                                                                                        |     |
| Transport logistika korxonalari va koridorlari samaradorligini oshirishda milliy logistikani boshqarish markazi platformasi.....                             | 139 |
| <b>AXMADOVA IRODA MUZAFFAR KIZI</b>                                                                                                                          |     |
| The economic role of professional tour guides in enhancing the quality of ecotourism services.....                                                           | 153 |
| <b>SODIQOVA NIGORA TURAYEVNA</b>                                                                                                                             |     |
| Suv resurslari cheklangan sharoitda hududiy ixtisoslashuvni takomillashtirish bo'yicha xorijiy tajribalar va ulardan O'zbekiston sharoitida foydalanish..... | 165 |
| <b>АСРОРОВА МАВЛУДА АБДУШУКУРОВА</b>                                                                                                                         |     |
| Кадровый потенциал в системе государственной научно-инновационной политики: сравнительный анализ опыта зарубежных стран.....                                 | 175 |
| <b>KULIBOYEV AZAMAT SHONAZAROVICH</b>                                                                                                                        |     |
| Davlat tibbiyot tashkilotlarida tibbiy xizmatlar kalkulyatsiyasini shakllantirish va xarajatlar hisobining uslubiy muammolari.....                           | 193 |
| <b>UMAROV JAVOHIR BAHODIR O'G'LI</b>                                                                                                                         |     |
| Tovar operatsiyalari hisobini avtomatlashtirishda integratsiyalashgan axborot tizimlarining roli: jahon tajribasi misolida.....                              | 204 |
| <b>KADIROVA LAZOKAT YUREVNA</b>                                                                                                                              |     |
| Davlat moliyaviy nazorati jarayonlarini sun'iy intellekt yordamida riskka yo'naltirilgan raqamli nazorat modeli asosida takomillashtirish.....               | 212 |
| <b>BAXSHULLOYEV FERUZBEK</b>                                                                                                                                 |     |
| The economics of digital water management: a critical review.....                                                                                            | 226 |
| <b>TO'XTAYEV UMIDJON SHUHRAT O'G'LI</b>                                                                                                                      |     |
| Xususiy tibbiy xizmatlar raqobatbardoshligini oshirish iqtisodiy mexanizmi amal qilish tamoyillari.....                                                      | 236 |
| <b>RAXIMOV ANVAR NORIMOVICH, MIRZAYOROVA HURIYAT UBAYDULLAYEVNA</b>                                                                                          |     |
| Qashqadaryo viloyatida qishloq xo'jaligi tadbirkorligi samaradorligidagi hududiy tafovutlarni baholash.....                                                  | 244 |
| <b>XURRAMOV XOLBEK XURRAM O'G'LI</b>                                                                                                                         |     |
| O'zbekistonning janubiy hududlarida anorchilik tarmog'ining rivojlanish tendensiyalari.....                                                                  | 251 |
| <b>ABDUSHEROZOVA MADINA SODIQJON QIZI</b>                                                                                                                    |     |
| Agrologistika korxonalarini rivojlantirish va shartnomaviy munosabatlarni takomillashtirish.....                                                             | 258 |
| <b>ZARIKEYEVA MIYASAR MARATOVNA</b>                                                                                                                          |     |
| Ekonometrik modellashtirishda endogenlik muammosi: nazariy yondashuvlar va zamonaviy baholash usullari.....                                                  | 264 |
| <b>KODIROVA GAVHAROI QUTBIDINOVNA</b>                                                                                                                        |     |
| Sanoat korxonalarining tashkiliy va iqtisodiy xususiyatlari.....                                                                                             | 276 |





**DJURAYEVA RUXSORA NEMATILLOYEVNA**

Qishloq joylarida aholi turmush farovonligini yaxshilash va bandligini ta'minlash yo'llari (Buxoro viloyati misolida).....283

**SULTANOV BAXODIR FAYZULLAYEVICH, SULTANOV AZIZBEK BAXODIR**

**O'G'LI**

Qishloq xo'jaligida melioratsiyadan yashil-raqamli transformatsiyagacha: evolyutsion rivojlanish va boshqaruv modeli.....290

**BAYMURATOVA ZINA AQILBEKOVNA**

Improving the credit risk management system in commercial banks.....299

**SHERQO'ZIYEVA UMIDA ULUG'BEK QIZI**

Sun'iy intellekt ta'sirida mehnat bozori: texnologik ishsizlik, kasblar qayta taqsimlanishi va inson kapitaliga yangi talablar.....308

**MASHARIPOVA SARVINOZ**

Sanoat tarmoqlarida yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida energiya tejamkorligini oshirishda xorij tajribasi.....320

**ACHILOV MASHRAB ULUG'BEKOVICH**

Intensiv bog'dorchilikni modernizatsiyalashning resurs-integratsiyalashgan mexanizmi.....328

**ABDULLAEV MUZAFFAR ABDUJABBAROVICH, KARIEVA GULNORA**

**ABDULLAEVNA, NARINBAEVA GULNORA KARIMOVNA**

Prospects for the formation of the economic mechanism of innovation policy in the regions.....335

**ABDULLAYEVA SHAXNOZA ERKINOVNA**

O'zbekistonda ijtimoiy himoya tizimida sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalardan foydalanish istiqbollari.....345





## O'ZBEKISTONDA IJTIMOY HIMOYA TIZIMIDA SUN'IY INTELLEKT VA RAQAMLI TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI

**ABDULLAYEVA SHAXNOZA ERKINOVNA**

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti  
Iqtisodiyot fakulteti Iqtisodiyot nazariyasi kafedrası doktoranti, PhD  
E-mail: [shakhnoza\\_abdullayeva@list.ru](mailto:shakhnoza_abdullayeva@list.ru)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada O'zbekistonda ijtimoiy himoya tizimini raqamlashtirish hamda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish istiqbollari tadqiq etilgan. Ijtimoiy yordamga muhtoj aholini aniqlash, ma'lumotlarni integratsiyalash, xizmatlarni proaktiv shaklda taqdim etish, individual ehtiyojlarni aniqlash va boshqaruv qarorlarini axborot bilan ta'minlashda raqamli texnologiyalarning imkoniyatlari yoritilgan. Tadqiqot yakunida ijtimoiy himoya tizimiga sun'iy intellektni bosqichma-bosqich joriy etish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** ijtimoiy himoya, sun'iy intellekt, raqamli texnologiyalar, raqamlashtirish, ijtimoiy xizmatlar, axborot tizimi.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются перспективы цифровизации системы социальной защиты в Узбекистане и использования технологий искусственного интеллекта. Подчеркиваются возможности цифровых технологий в выявлении населения, нуждающегося в социальной помощи, интеграции данных, проактивном предоставлении услуг, определении индивидуальных потребностей и предоставлении информации для принятия управленческих решений. По итогам исследования разработаны научно-практические предложения по поэтапному внедрению искусственного интеллекта в систему социальной защиты.

**Ключевые слова:** социальная защита, искусственный интеллект, цифровые технологии, цифровизация, социальные услуги, информационная система.

**Abstract.** This article examines the prospects of digitizing the social protection system and utilizing artificial intelligence technologies in Uzbekistan. It highlights the capabilities of digital technologies in identifying the population in need of social assistance, integrating data, delivering services proactively, assessing individual needs, and providing information to support management decisions. In conclusion, scientifically grounded and practical proposals are developed for the phased implementation of artificial intelligence within the social protection system.

**Keywords:** social protection, artificial intelligence, digital technologies, digitalization, social services, information system.

### KIRISH

Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi ijtimoiy himoya tizimini tashkil etish usullarini ham o'zgartirmoqda. Zamonaviy raqamli platformalar ehtiyojmand shaxslarni tezroq aniqlash, ma'lumotlarni avtomatik qayta ishlash va ayrim xizmatlarni proaktiv shaklda taqdim etish imkonini bermoqda. Shu sababli raqamlashtirish ijtimoiy himoyaning manzilliligi, tezkorligi va boshqaruv samaradorligini oshirish vositasiga aylanmoqda.

O'zbekistonda ushbu jarayonning huquqiy asoslari bosqichma-bosqich shakllantirilmoqda. 2024-yil 14-oktabrdagi PQ-358-son qaror bilan tasdiqlangan Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasi sun'iy intellektni ijtimoiy va iqtisodiy sohalarga joriy etish, katta ma'lumotlar infratuzilmasini rivojlantirish hamda zarur huquqiy sharoitlarni yaratishni ustuvor vazifalar sifatida belgilagan[1]. Strategiyada sun'iy intellekt asosidagi





dasturiy mahsulot va xizmatlar hajmini 2030-yilgacha 1,5 mlrd AQSH dollariga yetkazish hamda O'zbekistonni AI Readiness Index bo'yicha yetakchi 50 davlat qatoriga olib chiqish maqsadi belgilangan.

Shu sababli O'zbekistonda sun'iy intellektni to'liq avtomatik qaror qabul qiluvchi vosita sifatida emas, balki ijtimoiy xodimlar va davlat organlarining qarorlarini qo'llab-quvvatlovchi texnologiya sifatida bosqichma-bosqich joriy etish maqsadga muvofiq. Tadqiqotning maqsadi - O'zbekistonda ijtimoiy himoya tizimida sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalarni qo'llash imkoniyatlarini o'rganish hamda ularni samarali va xavfsiz joriy etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI**

Sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalardan davlat boshqaruvida foydalanish masalasi xorijiy ilmiy adabiyotlarda keng o'rganilmoqda. B.W. Wirtz, J.C. Weyerer va C. Geyerlar davlat sektorida sun'iy intellektdan foydalanishning asosiy yo'nalishlarini tizimlashtirib, AI texnologiyalari ma'lumotlarni qayta ishlash, qarorlarni qo'llab-quvvatlash, xizmatlarni avtomatlashtirish va fuqarolar bilan o'zaro aloqalarni yaxshilash imkonini berishini ta'kidlaydi[2]. Shu bilan birga, mualliflar texnologik, huquqiy, etik va tashkiliy muammolarni AI joriy etilishining asosiy cheklovlari sifatida ko'rsatadi.

T.Q. Sun va R. Medaglia davlat sektorida AI texnologiyalarini joriy etishda manfaatdor tomonlarning turlicha pozitsiyasi mavjudligini ko'rsatib, texnologik yechimlarning muvaffaqiyati faqat algoritm sifatiga emas, balki ma'lumotlar sifati, boshqaruv salohiyati va institutsional muvofiqlashtirishga ham bog'liqligini asoslaydi[3]. Ularning tadqiqoti davlat xizmatlarida AI joriy etilishida texnik va ijtimoiy omillarni birgalikda hisobga olish zarurligini ko'rsatadi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, xorijiy tadqiqotlarda davlat sektorida AI texnologiyalarining imkoniyatlari bilan bir qatorda, algoritmik xatolar, ma'lumotlar sifati, shaffoflik va etik xavflarga ham katta e'tibor qaratilgan[4]. O'zbekiston sharoitida esa[5] ijtimoiy himoya tizimida mavjud raqamli platformalarni sun'iy intellekt bilan integratsiyalash, AI yechimlarini qarorlarni qo'llab-quvvatlovchi vosita sifatida qo'llash hamda inson nazoratini saqlab qolish masalalari alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi.

### **TADQIQOT METODOLOGIYASI**

Tadqiqotda qiyosiy, institutsional va tizimli tahlil usullaridan foydalanildi. O'zbekistonda ijtimoiy himoya tizimida mavjud raqamli platformalar, axborot almashinuvi mexanizmlari va sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari o'rganildi. Asosiy e'tibor sun'iy intellektning ijtimoiy ehtiyojlarni aniqlash, qarorlarni qo'llab-quvvatlash, xizmatlarni proaktiv ko'rsatish va monitoring jarayonlaridagi imkoniyatlariga qaratildi.

### **TAHLIL VA NATIJALAR**

O'zbekistonda ijtimoiy himoya tizimining raqamlashtirilishi sun'iy intellektni joriy etish uchun dastlabki institutsional infratuzilmani





shakllantirmoqda. “Yagona milliy ijtimoiy himoya” axborot tizimi, elektron ma’lumot almashinuvi va “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari orqali shakllanayotgan ma’lumotlar bazasi kelgusida AI vositalarini qarorlarni qo’llab-quvvatlash jarayonlariga integratsiya qilish imkonini beradi [2; 3].

Bunda sun’iy intellektni qo’llashning asosiy yo’nalishlarini bir necha guruhga ajratish mumkin buni quyidagi 1-jadvalda ko’rishingiz mumkin.

**1-jadval**

**O’zbekistonda ijtimoiy himoya tizimida sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalardan foydalanishning istiqbolli yo’nalishlari**

| Yo’nalish                                            | Raqamli/AI yechimi                                      | Kutilayotgan natija                                              | Asosiy xavf                                    |
|------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------|
| <b>Ehtiyojmand aholini aniqlash</b>                  | Ma’lumotlarni avtomatik tahlil qilish, ML algoritmlari  | Ehtiyojni tezroq aniqlash va manzillilikni oshirish              | Noto’liq ma’lumot sababli noto’g’ri tasniflash |
| <b>Ijtimoiy xizmatlarni proaktiv taklif etish</b>    | Reyestrlar integratsiyasi va avtomatik bildirishnomalar | Fuqaroning alohida murojaatisiz xizmatni taklif qilish           | Shaxsiy ma’lumotlardan ortiqcha foydalanish    |
| <b>Xavf guruhlarini aniqlash</b>                     | Predictive analytics                                    | Ijtimoiy muammo kuchayishidan oldin profilaktik choralar ko’rish | Algoritmik diskriminatsiya                     |
| <b>Murojaatlarni qayta ishlash</b>                   | NLP, virtual yordamchilar                               | Murojaatlarni tezkor saralash va yo’naltirish                    | Murakkab holatlarni noto’g’ri talqin qilish    |
| <b>Ijtimoiy xodim faoliyatini qo’llab-quvvatlash</b> | Decision-support tizimlari                              | Individual xizmat rejasini shakllantirishda ko’mak               | AI tavsiyasiga haddan tashqari tayanish        |
| <b>Monitoring va nazorat</b>                         | Anomaliyalarni aniqlash algoritmlari                    | Takroriy, shubhali yoki noto’g’ri to’lovlarni aniqlash           | Noto’g’ri ijobiy signal                        |
| <b>Ijtimoiy xizmatlarga talabni prognoz qilish</b>   | Big Data va predictive modelling                        | Hududlar bo’yicha resurslarni oldindan rejalashtirish            | Prognozlarning tashqi omillarga sezgirligi     |

Manba: muallif ishlanmasi.

1-jadval ma’lumotlari shuni ko’rsatadiki, sun’iy intellekt ijtimoiy himoya tizimida nafaqat ma’lumotlarni qayta ishlash vositasi, balki xizmatlarni oldindan rejalashtirish va ijtimoiy xodimlar faoliyatini qo’llab-quvvatlash vositasi sifatida ham qo’llanishi mumkin. Ayniqsa, katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish, xavf guruhlarini erta aniqlash va murojaatlarni avtomatik saralash ijtimoiy xizmatlar tezkorligini oshirish imkonini beradi. Biroq texnologik samaradorlik oshgan sari algoritmik xato, noto’g’ri tasniflash va shaxsiy ma’lumotlardan foydalanish bilan bog’liq xavflar ham kuchayadi.

Shu sababli O’zbekiston sharoitida AI yechimlarini bir vaqtning o’zida barcha ijtimoiy xizmatlarga joriy etishdan ko’ra, bosqichma-bosqich integratsiya qilish maqsadga muvofiq. Dastlab ma’lumotlarni birlashtirish, takroriy yozuvlarni aniqlash, murojaatlarni saralash va ijtimoiy xodimlarga tavsiya berish kabi nisbatan past xavfli funksiyalardan foydalanish mumkin. Keyingi bosqichda esa ehtiyojni prognozlash, individual xizmat rejasini shakllantirish va resurslarni





hududlar kesimida rejalashtirishda AI vositalaridan foydalanish kengaytirilishi mumkin.

O'zbekiston ijtimoiy himoya tizimida sun'iy intellektdan foydalanishni quyidagi ustuvor yo'nalishlarda rivojlantirish maqsadga muvofiq:

- proaktiv ijtimoiy xizmatlar - fuqaro murojaat qilmasdan turib ehtimoliy ehtiyojni aniqlash;
- ijtimoiy risklarni erta aniqlash - oilaning ijtimoiy holati yomonlashish ehtimolini oldindan aniqlash;
- ijtimoiy xodim uchun decision-support tizimlari - individual xizmat rejasini shakllantirishda tavsiyalar berish;
- anomaliyalarni aniqlash - takroriy yoki shubhali to'lovlarni avtomatik aniqlash;
- hududiy talabni prognozlash - xizmatlar va mutaxassislarga ehtiyojni oldindan rejalashtirish.

Shu asosda O'zbekistonda ijtimoiy himoya tizimiga sun'iy intellektni joriy etish uchun tuzilgan modelni quyidagi 1-rasmda ko'rishingiz mumkin.



Model sun'iy intellektning tahliliy imkoniyatlarini mutaxassis ishtiroki va inson nazorati bilan uyg'unlashtiradi.

Manba: muallif ishlanmasi.

### **1-rasm. O'zbekistonda ijtimoiy himoya tizimiga sun'iy intellektni joriy etish modeli**

1-rasmdan ko'rinadiki, ijtimoiy himoya tizimida sun'iy intellektdan foydalanish jarayoni raqamli ma'lumotlarni shakllantirish va ularni tahlil qilishdan boshlanib, mutaxassis tavsiyasi hamda inson tomonidan yakuniy qaror qabul qilinishi bilan davom etadi. Mazkur yondashuv sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish bilan birga, ijtimoiy himoya sohasida inson nazoratini saqlab qolishga xizmat qiladi. Ayniqsa, ijtimoiy yordam tayinlash, ehtiyojmandlikni aniqlash va individual xizmatlarni shakllantirishda AI tizimlari qarorni avtomatik ravishda almashtiruvchi emas, balki mutaxassis faoliyatini qo'llab-quvvatlovchi vosita sifatida qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

O'zbekistonda ijtimoiy himoya tizimini raqamlashtirishning amaldagi holati.

Sun'iy intellekt texnologiyalarini ijtimoiy himoya tizimiga joriy etish imkoniyatlari mamlakatdagi mavjud raqamli infratuzilma, elektron davlat xizmatlari va axborot tizimlarining integratsiyalashuv darajasiga bevosita bog'liq. Shu sababli O'zbekistonda ijtimoiy himoya tizimini raqamlashtirish jarayonining ayrim muhim ko'rsatkichlarini tahlil qilish maqsadga muvofiq.





## 2-jadval

### O'zbekistonda ijtimoiy himoya tizimini raqamlashtirishning asosiy ko'rsatkichlari

| Ko'rsatkich                                                                         | Davr            | Miqdor / holat           |
|-------------------------------------------------------------------------------------|-----------------|--------------------------|
| Government AI Readiness Index bo'yicha O'zbekistonning o'rni                        | 2024            | 70-o'rin, 53,45 ball     |
| Government AI Readiness Index bo'yicha O'zbekistonning o'rni                        | 2025            | 62-o'rin, 54,7 ball      |
| "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari                                               | 2026            | 208 ta tuman va shaharda |
| Mahalla darajasida yo'lga qo'yilgan ijtimoiy xizmatlar                              | 2024-yil yakuni | 102 ta                   |
| Reyestrda bo'lmagan holda aniqlanib, yordam ko'rsatilgan ehtiyojmand shaxslar       | 2024            | 95 ming nafar            |
| Ijtimoiy xizmat va yordamlar bo'yicha murojaatlarning kamayishi                     | 2024            | 35 %                     |
| Yagona raqamli platformaga integratsiya qilinishi ko'zda tutilgan davlat xizmatlari | 2026            | 1 000 dan ortiq          |
| Integratsiya qilinishi ko'zda tutilgan davlat organlari funksiyalari va vazifalari  | 2026            | 5 000 dan ortiq          |
| Integratsiya qilinishi ko'zda tutilgan ma'lumotlar bazalari va axborot tizimlari    | 2026            | 240 ta                   |

Manba: muallif ishlanmasi.

2024-yilda O'zbekiston Government AI Readiness Indexda 53,45 ball bilan 70-o'rinni egallagan bo'lsa, 2025-yilda 54,7 ball bilan 62-o'ringa ko'tarilgan. Bu davlat sektorida sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish uchun institutsional va texnologik imkoniyatlarning kengayayotganini ko'rsatadi.

Ijtimoiy himoya infratuzilmasida ham sezilarli o'zgarishlar kuzatilmoqda. Mamlakatning 208 ta tuman va shahrida "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari faoliyat yuritmoqda. 2024-yil yakuniga kelib mahalla darajasida 102 turdagi ijtimoiy xizmat yo'lga qo'yilgan, ilgari reyestrda qayd etilmagan 95 ming nafar ehtiyojmand shaxs aniqlanib, ularga yordam ko'rsatilgan. Shu bilan birga, ijtimoiy xizmat va yordamlar bo'yicha murojaatlar 35 foizga kamaygan.

2026-yildan elektron hukumat platformasini rivojlantirish doirasida 1 mingdan ortiq davlat xizmati, 5 mingdan ziyod davlat funksiyasi hamda 240 ta ma'lumotlar bazasi va axborot tizimini yagona platformaga integratsiya qilish ko'zda tutilgan.

Mazkur jarayonlar kelgusida ijtimoiy himoyada AI algoritmlaridan foydalanish, ehtiyojlarni oldindan aniqlash va xizmatlarni proaktiv shaklda tashkil etish uchun zarur raqamli asosni shakllantiradi. Shu sababli keyingi bosqichda asosiy e'tibor ma'lumotlar integratsiyasi, ularning sifati va inson nazoratiga asoslangan AI yechimlarini rivojlantirishga qaratilishi maqsadga muvofiq.





## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari O'zbekistonda ijtimoiy himoya tizimini raqamlashtirish va sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish uchun zarur institutsional hamda axborot infratuzilmasi bosqichma-bosqich shakllanayotganini ko'rsatadi. "Yagona milliy ijtimoiy himoya" axborot tizimi, "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari, davlat ma'lumotlar bazalarining integratsiyasi va elektron xizmatlarning kengayishi ijtimoiy himoya tizimini yanada tezkor, manzilli va proaktiv shaklda tashkil etish imkonini bermoqda.

Shu bilan birga, sun'iy intellektni ijtimoiy himoya sohasiga joriy etishda texnologik imkoniyatlar bilan bir qatorda ma'lumotlar sifati, shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligi, algoritmik xatolar va inson nazoratini saqlab qolish masalalariga ham alohida e'tibor qaratish lozim. AI tizimlari yakuniy qaror qabul qiluvchi vosita sifatida emas, balki ijtimoiy xodimlar va davlat organlarining qarorlarini qo'llab-quvvatlovchi mexanizm sifatida qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, quyidagi takliflar ilgari suriladi: ijtimoiy himoyaga oid ma'lumotlar bazalarini yagona standartlar asosida integratsiyalash; sun'iy intellekt yechimlarini dastlab alohida hudud va xizmat turlarida pilot tarzda sinovdan o'tkazish; ijtimoiy xodimlarning raqamli kompetensiyalarini oshirish; algoritmlarning tushuntiriluvchanligi va shaffofligini ta'minlash; shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish mexanizmlarini kuchaytirish hamda barcha muhim qarorlar ustidan inson nazoratini saqlab qolish.

Mazkur chora-tadbirlarning amalga oshirilishi O'zbekistonda ijtimoiy himoya tizimini an'anaviy murojaatga asoslangan modeldan proaktiv, ma'lumotlarga asoslangan va individual ehtiyojlarga yo'naltirilgan zamonaviy boshqaruv modeliga bosqichma-bosqich o'tkazishga xizmat qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 14.10.2024 yildagi PQ-358-son.
2. Wirtz B.W., Weyerer J.C., Geyer C. Artificial Intelligence and the Public Sector-Applications and Challenges // International Journal of Public Administration. – 2019. Vol. 42, No. 7. P. 596–615. DOI: 10.1080/01900692.2018.1498103.
3. Sun T.Q., Medaglia R. Mapping the Challenges of Artificial Intelligence in the Public Sector: Evidence from Public Healthcare // Government Information Quarterly. – 2019. – Vol. 36, No. 2. – P. 368–383. DOI: 10.1016/j.giq.2018.09.008.
4. Veale M., Brass I. Administration by Algorithm? Public Management Meets Public Sector Machine Learning // Yeung K., Lodge M. (eds.). Algorithmic Regulation. – Oxford: Oxford University Press, 2019. – P. 121–149. DOI: 10.1093/oso/9780198838494.003.0006.
5. Sharipov B.Sh. Ijtimoiy loyihalarni raqamlashtirish orqali samaradorlikni oshirish masalalari Modern Education and Development. – 2025. – B. 100–106. DOI: 10.71337/inlibrary.uz.mead.116690.



**Mas'ul muharrir:** Beglayev Uchqun

**Musahhih:** Boltayev Nurali

**Sahifalovchi va dizaynerlar:** Normurodov Sarvar,  
Sharipov Shoxruh

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul hisoblanadi. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqolalar, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

**Elektron pochta:** [licht-1989@mail.ru](mailto:licht-1989@mail.ru)

**Jurnalning telegram manzili:** [t.me/agrobiznes\\_elektronjournal](https://t.me/agrobiznes_elektronjournal)

**Telefon raqami:** +998939018320, +998934393000

**Jurnal rasmiy sayti:** <https://www.agrobiznesjournal.uz>

"Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo'yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.



"Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali 2023-yil 23-maydan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan C-5669225 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №083688

**Manzilimiz:** Toshkent viloyati, Qibray tumani,  
Universitet ko'chasi, 2-uy